



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIMNI TIZIMINI ISLOH QILISHNING USTVOR YO'NALISHLARI VA O'QUV JARAYONLARIDA QO'LLANILADIGAN ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR, KREDIT-MODUL ISTIQBOLLARI

Qadamboyev Shahzod<sup>1</sup>

UrDU, Pedagogika va Psixologiya fakulteti 4-bosqich talabasi,

Xondurdiyeva Zebo<sup>2</sup>

UrDU, Pedagogika va Psixologiya fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-131>

### ARTICLE INFO

Received: 12<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 21<sup>th</sup> February 2023

Online: 22<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Ta'lim, qonun, kadr, maktab, kvota, mobillik, kredit-modul.

### ABSTRACT

*Rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishni xohlagan, ishlab chiqarishda yuqori sifat ko'rsatgichlariga erishishni va pirovardida farovon turmush tarziga ega bo'lishni istagan har qanday mamlakat o'zining islohatlar strategiyasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berishi zarur. Xususan, ushbu maqolada biz mamlakatimizdagi yangi ta'lim tizimining qanday ajamiyatga egaligi haqida so'z yuritamiz.*

Talabalarning mehnat bozorida egallagan bilimlariga munosib ish o'rniga ega bo'lishi, shuningdek talabalarning xalqaro mobilligini oshirishda diplom ilovasini xalqaro standartlarga va zamon talabiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “**Ta'lim to'g'risida**”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga lisenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi. Ushu qonun bilan 1997- yil 29 avgustdagi “Ta'lim to'g'risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.

Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin. **Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev** ta'kidlaganlaridek, “farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, **Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi** desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”. Bundan tashqari, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan



yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllarini qayta tikladik, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetgan bo'lsa-da, biz bu ishlarni yanada kengaytirishimiz zarur. Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Dunyoda oliy ta'lim muassasalarining vazifasi tubdan o'zgarimoqda. Endi ular to'rt yil o'qitib, diplom beruvchi yopiq tizimdan yoshlarda mehnat bozori uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradigan va ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradigan, jamiyatni barqaror rivojlanishi uchun hissa qo'shadigan shaxsga aylantiradigan ochiq ekotizimga aylanmoqda. Bu jarayonda o'quv dasturlari, ta'lim resurslari va o'qitish metodikasi ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan va inklyuziv bo'lishi, ta'lim oluvchilarning hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishi, ularda tez o'zgaruvchan muhit va mehnat bozori talablariga moslashuvchanlik qobiliyati hamda vatanparvarlik hissini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Oliy ta'limda Xalqaro hamkorlik.** Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatiga bo'lgan egalik hissini shakllantirish va ta'lim sifatiga bo'lgan hisobdorligini oshirish hamda o'z faoliyatini zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlash standartlariga (ESG) muvofiqlashtirish orqali oliy ta'limda ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Shu yilning 26-30-iyun kunlari Litva poytaxti Vilnyus shahrida tashkil etilgan o'quv seminari mazkur vazifalar ijrosi yo'lida yangi ilg'or tajribalarni o'rganish va hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda muhim platforma bo'ldi. Jahon bankining "Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish" loyihasi doirasida o'tkazilgan tadbirda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda oliy ta'lim muassasalari vakillaridan iborat O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Safardan ko'zlangan asosiy maqsad oliy ta'limda sifat va samardorlik ko'rsatkichlarini oshirishda Yevropa davlatlari tajribasini o'rganish, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida akademik mobillikni yanada jadallashtirish, bu borada amaliy hamkorlikni kengaytirish hamda oliy ta'limda ta'lim sifatini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha xalqaro hamjamiyatning xabardorligini oshirish, oliy ta'lim kvalifikatsiyalarini tan olish bo'yicha o'zaro axborot almashinuvini yo'lga qo'yish borasida aniq kelishuvlarga erishishdan iborat.



**Talabaning mobilligi.** Yevropada 1987-yildan beri mavjud bo'lgan ushbu turdagi mobillik Yevropadan tashqari universitetlar, talabalar va xodimlar uchun ochiqdir. Erasmus+ kredit mobilligi, ya'ni talabalarning 2 oydan 12 oygacha yoki 5 dan 30 kungacha bo'lgan mobilligini, agar aralash mobillikning bir qismi (har ikki yo'nalishda ham) qabul qiluvchi muassasada kredit olish uchun, keyin esa uy muassasasi tomonidan tan olinadi. Ushbu yo'nalish, shuningdek, ishtirokchi universitetlarga 2 oygacha bo'lgan xodimlarning mobilligini moliyalashtiradi, chunki universitet xodimlari o'z muassasalarida o'zgarishlar agenti bo'lganligi uchun bu juda muhimdir. Grantlar ishtirokchi universitetlar o'rtasidagi institutlararo shartnomalar (Inter-Institutional agreement) asosida beriladi. Uchinchi davlat universitetlari (Non-associated third country universities) bilishi kerakki, barcha 33 Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar + aloqador mamlakatlar universitetlari har yili o'z mintaqasidagi universitetlar bilan shartnomalar tuzish uchun loyihalarni topshirishadi. Ular institutsional darajadagi mavjud aloqalarini (memorandumlar, tadqiqot shartnomalari) o'rganishlari va qaysi fakultetlarda allaqachon Erasmus+ kelishuvining bir qismi bo'lishi mumkinligini bilish uchun Yevropa universitetlari bilan xodimlar yoki talabalarning mobilligi bo'yicha kelishuvlar mavjudligini ko'rishlari kerak. Ushbu mobillik markazlashtirilmagan va Yevropa Ittifoqining yoki unga aloqador mamlakatlardagi Milliy agentliklar tomonidan boshqariladi. Unda butun dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalari ishtirok etishi mumkin, biroq faqat Yevropa Ittifoqiga a'zo yoki unga aloqador mamlakatlardagi muassasalar o'zlarining Milliy agentligiga loyiha takliflarini topshirishlari mumkin. Mavjud byudjet dunyoning har bir mintaqasi uchun alohida mintaqalar bo'yicha bo'lingan. Har bir mintaqa bo'yicha Yevropa Ittifoqining tashqi ustuvorliklariga muvofiq belgilanadi, ba'zi hududlar kattaroq byudjet mablag'laridan foydalanadi va shuning uchun ko'proq mobilliklarni moliyalashtiradi. 2021-2027 yillarga mo'ljallangan dastur davridagi eng katta byudjetlar Sahroi Kabirdan Janubiy Afrika, G'arbiy Bolqon va Yevropa Ittifoqining qo'shni mintaqalari - Sharqiy va Janubga ajratilgan. Yo'nalishga ajratilgan umumiy byudjet 1,064 milliard yevroni tashkil qiladi. Agar sizning universitetingiz Inter-Institutional Agreement ega bo'lsa, siz Xalqaro kredit mobilligida ishtirok etishingiz mumkin. Shuning uchun siz universitetingizga murojaat qilishingiz kerak. Bu quyidagilar bo'lishi mumkin: universitetingizning xalqaro aloqalar bo'limi yoki sizning fakultetingiz doirasida Erasmus+ kredit mobilligi imkoniyatlari taklif etilishi mumkin. Dasturingizning ma'lum bir bosqichida sizga qaysi hamkor universitetlarda qaysi kurslar mavjudligi aytiladi. Xalqaro kredit mobilligi loyihalari 16 yoki 24 oy davom etishi mumkin. OTMlar quyidagi mobillik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyalashtirish uchun loyiha takliflarini topshirishlari mumkin:

- Hamkor davlatdan dastur davlatiga va aksincha o'qish uchun talabalarning mobilligi.
- Talabalarning stajirovka uchun hamkor davlatdan dastur mamlakatiga va aksincha.

So'nggi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hududlarda yangi, shu jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.



**Kredit modul tizimi** Bilim va ilmning shakllanishi bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Xo'sh, bundan ko'zlangan maqsad nima?

Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi?

U yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga qanchalik mos?

Quyida ana shu savollarga batafsil javob izlashga harakat qilamiz.

### **Uning o'zi nima?**

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

### **Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:**

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.



**Modul** — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 — 4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

**Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:**

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

**Kredit (credit)** — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktivi"ga aylanib boradi. Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

**Tarix va sabab** Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AqSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. 1869-yilda Garvard universiteti prezidenti,



Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 — 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi. Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi. Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

- birinchisi, talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;

- ikkinchisi, talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama — kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi. Ushbu tizimni yaratish uchun o'tgan asrning 70-yillaridan Yevropadagi barcha oliy ta'lim muassasalarining integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'limning yagona standartini yaratish, talabalar va o'qituvchilar mobilligini yo'lga qo'yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasiga qo'yiladigan ballarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq bir qator muammolarni yechishga qaratilgan sa'y-harakatlar boshlab yuboriladi.

Mazkur harakatlarning samarasi o'laroq, 1999-yilda Italiyaning Bolonya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida 48 ta mamlakat ishtirok etadi. Ularning orasida MDh mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, qozog'iston va Belarus Respublikasi ham bor. Bolonya tizimi bo'yicha oliy malakali kadrlarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Odatda uch yildan kam bo'lmagan bakalavrlar tayyorlash hamda 1-2 yillik magistratura bosqichi. Ko'pgina ekspertlar Bolonya deklaratsiyasining qabul qilinishiga salohiyatli, iqtidori yuqori bo'lgan talabalarni egallash, mehnat bozorida ularning bilimni qadrlash bo'yicha AqSh bilan kechgan raqobatda Yevropa oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari cheklanganligi, ko'plab "aql sohiblari"ning ko'hna qit'ani tark etib, Amerikaga ko'chib ketish tendensiyasiga qarshi ko'rilgan chora asosiy sabab bo'lganini e'tirof etadi. Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligini hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalardagi islohotlar Vatanimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, yurt ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shuvchi malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifalardan biri etib belgilamoqda.



## References:

1. Kun.uz sayti
2. Daryo.uz sayti
3. Elibrary.ru
4. Uza.uz
5. cyberleninka.ru
6. Nuu.uz
7. Tdi.uz